

**Rasulov T.S. i.f.d., professor,
ToshDSHI kafedra mudiri
Xushvaqtoq Q.R.
ToshDSHI 2-bosqich talabasi**

MDH DAVLATLARIDA YASHASH STANDARTI VA UNGA VALYUTA KURSINING TA’SIRI

Kalit soʻzlar: yashash standarti, Inson taraqqiyoti indeksi, Hayot indeksidan qoniqish, YaIM, xarid qobiliyati pariteti, valyuta, valyuta ayirboshlash operatsiyalari, konversion kartalar, ustav fondi, pul-kredit siyosati, devalvatsiya, inflyatsiya.

Key words: living standards, human development index, satisfaction with life index, GDP, purchasing power parity, currency, currency conversion operations, conversion cards, statutory fund, monetary policy, devaluation, inflation.

Ключевые слова: уровень жизни, индекс человеческого развития, удовлетворенность жизненным индексом, ВВП, паритет покупательной способности, валюта, операции конвертации валют, конверсионные карты, уставный фонд, денежная политика, девальвация, инфляция.

Annotatsiya: maqolada yashash standarti darajasini aniqlash usullari, valyuta kursining yashash standartiga ta’siri, O‘zbekistonda valyuta kursi liberallashtirish bo‘yicha olib borilgan chora tadbirlar va milliy valyutaning yagona to‘lov vositasi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘rib chiqilgan.

Annotation: the article overviews the methods of determining the standards of living, impact of exchange rate to living standards, actions that have been done to liberalize exchange rate in Uzbekistan, and works helping national currency maintain as a single payment instrument.

Аннотация: в статье рассматриваются методы определения уровня жизни, влияние обменного курса на уровень жизни, действия, которые были предприняты для либерализации обменного курса в Узбекистане и работы помогающие национальной валюте поддерживать единый платежный инструмент.

Ma’lumki, global iqtisodiyotda davlatlar orasida yashash standartlari bo‘yicha yirik tafovut mavjud. Dunyoning boy hududlarida farovonlik ko‘rsatkichi ancha yuqori.

Xalqaro taqqoslashlarni olib borishda nisbiy faravonlikni bir necha usullarda o‘lchash imkoni mavjud. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

- “Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi” (*“GDP per capita”*) usuli;
- 1990-yilda AQSH tomonidan ishlab chiqilgan “Inson taraqqiyoti indeksi” (*“Human Development Index”*) usuli. U tug‘ilishda umr ko‘rish davomiyligi, ta’lim sifati va daromad ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi;
- Buyuk Britaniyaning Leysester universiteti psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan “Hayot indeksidan qoniqish” (*“Satisfaction With Life Index”*) usuli. Bu usul odamlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri ular o‘zlarining sog‘ligi, boyligi va ta’limidan qay darajada mamnun ekanliklari haqida so‘rashni o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari o‘rtacha umr ko‘rish, sog‘likni saqlash, aholi savodxonligi, ijtimoiy himoya, inson erkinligi kabi ko‘rsatkichlaridan ham foydalaniladi. Hozirgi kun iqtisodiyotida eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘lchov bu aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot (YaIM) ni hisoblashdir. Bu murakkablashmagan lekin, fundamental ma’lumot jihatidan tushunish va hisoblash oson bo‘lgan usul sanaladi. Bu usulda xalqaro taqqoslashlarni amalga oshirishda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM ko‘rsatkichlarini umumiy valyutaga keltirish orqali hisoblash muhim hisoblanadi, masalan, AQSH dollarida hisoblash qabul qilingan. Chunki turli valyutalarda hisoblangan taqqoslashlar tafovutlarni yaqqol ko‘rishda qiyinchilik tug‘diradi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi mahsulot qiymatini bir umumiy pul birligiga keltirish zarur, aks holda, buning ortidagi ma’lumot valyuta kursi tufayli buzib ko‘rsatilishi mumkin. Mukammal bo‘lmagan valyuta bozorlari ba’zi pul birliklari qiymatini haddan tashqari ko‘p baholaydi, boshqalarini esa aksincha bo‘lishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda YaIM past, lekin yashash arzonroq bo‘lishi mumkin. Ming dollar kambag‘al mamlakatlarda boy mamlakatlarga nisbatan ko‘proq mahsulot va xizmatlarni sotib olish bilan birga kambag‘al mamlakatning pul birligini joriy valyuta kursida past baholanadi. Shu sababli, agar dollar boshqa mamlakatning pul birligiga xarid qobiliyati pariteti¹ (XQP) asosida valyuta kursi orqali hisoblansa, YaIM ancha aniqroq bo‘ladi.

¹ Xarid qobiliyati pariteti – ikki (yoki bir nechta) valyuta valyuta o‘rtasida muayyan tovarlar va xizmatlar to‘plamini xarid etish quvvatlari nisbatini boshqa mamlakatlarning pul birliklarida ifodalangan bir mamlakat pul birligining xarid quvvati nimaga teng ekanligini ko‘rsatadi.

MDH davlatlarining ba’zi ko’rsatkichlari, 2016.²

	Aholisi (mln kishi)	Aholi jon boshiga YaIM, XQPda (\$)	Aholi jon boshiga YaIM, rasmiy valyuta kursida (\$)	VKI* Valyuta kursi indeksi
MDH	284	13,240	4,211	3,14
Rossiya	146,8	27,900	8,748	3,18
Ukraina	42,5	8,700	2,185	3,98
Belarusiya	9,5	18,600	4,989	3,72
Moldaviya	4,3	5,700	1,900	3,0
Armeniya	2,9	9,100	3,614	2,51
Azarbayjon	9,6	17,400	3,878	4,48
Qozog‘iston	17,9	26,100	7,714	3,38
Qirg‘iziston	6,01	3,700	1,077	3,43
Tojikiston	8,7	3,100	795	3,89
Turkmaniston	5,0	18,700	6,389	2,92
O‘zbekiston	32,1	6,640	2,210	3,01

*VKI = Valyuta Kursi indeksi

Bu shuni anglatadiki, har qanday mahsulot yoki xizmat turi bir mamlakatda boshqasi kabi bir xil narxda bo‘lishi uchun rasmiy valyuta kursini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish kerak. Ma’lumki, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi mahsulotni XQP asosida hisoblash jarayoni oson emas. Shuning uchun, Jahon Banki kabi xalqaro agentliklar YaIM ko‘rsatkichlarini XQPda ham berishadi. Yuqoridagi statistik ko‘rsatkichlarda ifodalangan MDH davlatlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM joriy valyuta kursida va XQPda berilgan.

Keltirilgan jadvalda birinchi bo‘lib to‘rtta Yevropada joylashgan MDH davlatlari, undan so‘ng ikkita Kavkazdagi davlatlar va oxirida beshta Markaziy Osiyo davlatlari berilgan.

MDHning butun aholisi 2017-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 284 million kishini tashkil etib, Rossiya 146,8 million istiqomat qiluvchilari bilan guruhda yetakchi hisoblanadi. Lekin bunga Rossiyaning hududi katta ta’sir qiladi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni mos ravishda Ukraina 42,5 million va O‘zbekiston 32,1 million aholi bilan egallab turibdi.³ (Aslini olganda hozirda MDH tarkibida to‘qqizta davlat rasman o‘rin olgan bo‘lib, Ukraina va Turkmaniston kuzatuvchi a‘zo hisoblanishadi.)

MDH davlatlarida “haqiqiy” yashash standarti ko‘rsatkichi rasmiy valyuta kursida hisoblanganda aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM AQSH dollarida juda

² www.worldbank.org/indicator

³ http://www.cisstat.com/eng/frame/_about.htm

kam miqdorga ega boʻladi. 2016-yilda MDH boʻyicha aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi oʻrtacha YaIM 4 200 dollardan koʻproqni tashkil etdi.⁴ Bir vaqtda Jahon Bankiga koʻra Germaniyada bu koʻrsatkich 42 200 dollarga toʻgʻri keladi.⁵ Bir qarashda Germaniyada yashash standarti MDH davlatlarnikiga qaraganda 10 barobar yaxshidek koʻrinadi. Yoki, MDH davlatlari oʻrtasidagi rasmiy kursda hisoblangan YaIMga eʼtibor qilsak ham katta farqlar koʻzga tashlanadi. Misol uchun, bu guruhda eng yirik koʻrsatkich Rossiyada 8 748 dollar va eng kam koʻrsatkich Tojikistonda 795 dollarni tashkil etadi. Koʻrsatkichlar Rossiyada Tojikistonga nisbatan YaIM 11 barobar koʻp ekanligini ifodalamoqda. Lekin bu koʻrsatkichlar narxlar darajasi haqida juda kam maʼlumot beradi.

MDH davlatlarida aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi haqiqiy YaIM past, yoki juda past boʻlib, bu shundan dalolat beradiki, rasmiy valyuta kurslari narx darajalariga juda katta taʼsir qiladi. Shuning uchun XQP ni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi.

XQP hisoblangandan soʻng oʻrtacha yashash standarti (aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi YaIM) asliga nisbatan toʻrt barobarga ortdi. Demak, MDH mamlakatlarida milliy valyutalar ancha past baholanar ekan.

XQP orqali toʻgʻirlangan koʻrsatkichlar tufayli, endilikda Rossiya 27 900 dollar bilan eng yuqori yashash standartiga (aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi YaIM) erishdi. Tojikiston uchun bu koʻrsatkich 3 100 dollarni tashkil etdi. Lekin oradagi farq oʻn bir baravardan yoʻqqiz baravargacha kamaydi.

Yuqoridagi jadvalda, shuningdek, MDH davlatlari uchun VKI (valyuta kursi indeksi) i ham berilgan. VKI hisoblab chiqilgan XQP iga aholi jon boshiga toʻgʻri keluvchi YaIMning nisbati orqali ifodalangan. Rasmiy valyuta kursi har bir davlatda qoniqarli narx darajasini aks ettirishi kerak. Agar bozorlar mukammal boʻlganda edi, rasmiy kursda olingan YaIM va hisoblangan XQP oʻrtasida hech qanday farq boʻlmas edi. Yuqoridagi jadvalda esa ikkita koʻrsatkich biri biridan keskin farq qiladi va MDH mamlakatlari boʻyicha oʻrtacha VKI 3,14 ga teng.

VKI koʻrsatkichi shuni anglatadiki, MDH hududiga gʻarbdan tashrif buyuruvchining yuz dollari unga uch barobar xarid qobiliyatini taqdim etadi. Chunki MDH davlatlaridagi oʻrtacha isteʼmolchi savati narxi uning gʻarbdagi ekvivalentining uchdan biriga teng. Lekin bu holatda shuni nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, gʻarbdan kelganlar uchun bu ustunlik faqatgina oʻrtacha isteʼmol mahsulotlarini sotib olishda asosli boʻlib, hashamatli mehmonxonalar va shunga oʻxshash joydalaridagi narxlarga bogʻliq emas.

MDH mamlakatlari fuqarosi Gʻarbga tashrif buyurgan vaqtda esa, u gʻarb valyutasini sotib olish jarayonida pulining past baholanishi bilan “jazolanadi”.

⁴ www.worldbank.org/indicator

⁵ <http://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD>

Ko‘pincha bu kabi milliy valyutaning past baholanishi “valyuta kursi himoyalaniishi” sifatida ta’riflanadi; u mamlakatning eksportga bo‘lgan raqobatini oshirib, import qilishga bo‘lgan xohishini kamaytiradi.

O‘zbekistonda shu kabi muammolarni inobatga olgan holda, 2017-yilning 2-sentabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini erkinlashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5177-sonli Farmoni e’lon qilindi. Bu Farmon amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan edi. Quyida mazkur farmon qabul qilinishiga sabab bo‘lgan omillar va bu farmon ijrosi natijasida vujudga keladigan o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni qabul qilinishiga mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, joriy investitsiyalarni jalb qilishga to‘sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar mavjudligi sabab bo‘ldi.

Jumladan, valyutani tartibga solishga haddan ziyod ma’muriy aralashuv, tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va xo‘jalik yurutuvchi subyektlari uchun alohida imtiyoz va preferensiyalar mavjudligi oqibatida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida biznesni yuritishga doir teng bo‘lmagan shart-sharoitlar paydo bo‘ldi hamda parallel chet el valyutasi bozori va ayirboshlash kursi vujudga keldi.⁶

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotish va konversion bo‘limlaridan sotib olish va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatish huquqi berildi.

Milliy valyutaning yagona to‘lov vositasi sifatidagi mavqeyini mustahkamlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar va xizmatlar (ishlar) uchun chet el valyutasida to‘lovlarni amalga oshirish taqiqlandi. Shu jumladan, ushbu Farmon bilan tovar, ish va xizmatlar uchun narx va tariflar, shuningdek, jamiyatlarning ustav kapitaliga qo‘yiladigan minimal talablar faqat milliy valyutada belgilanishi qayd etildi.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi hududida transport ekspeditsiyasi shartnomalari (yuklarni yetkazib berish manzilidan qat’iy nazar) bo‘yicha hisob-kitoblar faqat O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshiriladi.

⁶ www.cbu.uz “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonga sharh.

Oʻz navbatida, chet ellik yuk tashuvchilarning xizmatlari uchun toʻlovni amalga oshirish joriy xalqaro operatsiya hisoblanadi va u boʻyicha rezident yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 iyuldagi 294-son qarori bilan tasdiqlangan “Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida nizom” ga asosan amalga oshiriladi.

Mamlakat hududida vositachilik (komissiya) shartnomasi asosida chet el valyutasida hisob-kitoblarni amalga oshirish toʻgʻrisida kelib tushayotgan murojaatlar yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining maʼlum qilishicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi PF-5177-sonli Farmoniga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi hududida tovar (ish va xizmat)lar uchun toʻlovlarni chet el valyutasida amalga oshirish taqiqlanadi, xalqaro tajribaga muvofiq xalqaro toʻlov kartalari orqali toʻlovlar bundan mustasno.

Farmonini ijro etish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qaroriga muvofiq Tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutadagi hisobvaraqlarni yuritish Tartibiga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi (1998 yil 22 oktyabr 511-son).

Yuqorida qayd etilgan oʻzgartirishlar va qoʻshimchalarga koʻra, chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat koʻrsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va fermer xoʻjaliklariga oʻz mablagʻlarini erkin tasarruf qilishlarini kafolatlash maqsadida, ularning bank hisobvaragʻidan chet el valyutasini naqd koʻrinishida olish huquqi berildi.

Markaziy bank tomonidan valyuta kursining erkinlashtirilishi natijasida tijorat banklari kredit portfelining xorijiy valyutadagi qismi boʻyicha vujudga kelishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilishi lozim boʻlgan ishlar tahlil etildi.

Mamlakat hududidagi barcha toʻlovlar milliy valyutada amalga oshirilishi lozimligini inobatga olib hamda noqonuniy va spekulativ operatsiyalarni oldini olish maqsadida ehtiyoj uchun zarur boʻlgan valyutani qonuniy ravishda erkin xarid qilish imkonini beruvchi chet el valyutasini sotib olish tartibi joriy etildi.

Chet el valyutasi oldi-sotdisi boʻyicha bank xizmatlarining ommabopligini taʼminlash uchun Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.⁷

1. Barcha viloyatlarda keng qamrovli valyuta ayirboshlash shoxobchalari tarmogʻi yaratilib, hozirda ularning umumiy soni 900 dan oshdi va ularda mijozlarga

⁷ <http://m.cbu.uz.uzc/press-tsentr/press-relizy/2017/12/96186/> “Chet el valyutasi oldi-sotdisi boʻyicha bank xizmatlari ommabopligini taʼminlash boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”

tezkor xizmat koʻrsatish uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Aholiga valyuta ayirboshlash operatsiyalari boʻyicha xizmat koʻrsatish uchun bank infrastrukturasini kengaytirish ishlari davom ettirilmoqda.

2. Jismoniy shaxslarning konversion kartalaridan chet elda foydalanish boʻyicha barcha cheklovlar bekor qilindi, xususan:

- bankomatlar orqali cheklanmagan miqdorda naqd chet el valyutasini yechish imkoniyati yaratilib, barcha mavjud kunlik va oylik cheklovlar bekor qilindi;
- konversion kartalardan foydalanishda mamlakat va turli xil maqsadlar boʻyicha oʻrnatilgan cheklovlar bekor qilindi. Endilikda ushbu kartalar orqali dunyoning barcha mamlakatlarida istalgan doʻkon, mehmonxona va toʻlov qabul qilish imkoni mavjud boʻlgan nuqtalarda toʻlovlarni amalga oshirish mumkin;
- konversion kartalardagi mablagʻlardan Oʻzbekistondagi banklar orqali tegishli hujjatlar (invoys) taqdim etgan holda davolanish, oʻqish va boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin.

3. Yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini sotib olish imkoniyati berildi. Natijada isteʼmol tovarlari importi bilan shugʻullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini jismoniy shaxslar uchun oʻrnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat berildi (xarid qilingan chet el valyutasi bank hisobvaragʻiga oʻtkaziladi va mijozga xalqaro toʻlov kartasi taqdim etiladi).

Shu munosabat bilan, yakka tartibdagi tadbirkorlar chet el valyutasini cheklanmagan miqdorda xarid qilib, ushbu mablagʻlarni oʻz xohishiga koʻra, joriy xalqaro operatsiyalar (tovar va xizmatlar importi) toʻlovlari uchun yoʻnaltirishlari mumkin. Bunda chet el valyutasini xarid qilishda savdo tushumi va bankka kirim qilingan mablagʻlar hisobidan amalga oshirishlari mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar xarid qilingan chet el valyutasini cheklovlarsiz foydalanishlari mumkin:

- mamlakat hududidan tashqarida - xalqaro toʻlov kartalari orqali, shu jumladan bankomat orqali naqd chet el valyutasini yechib olish yoʻli bilan;
- mamlakat hududida - tasdiqlovchi hujjatlar (invoys yoki toʻlov uchun hisob, import shartnomasi va b.) asosida bank oʻtkazmasi yoʻli bilan.

4. Doimiy ravishda aholining chet el valyutasiga boʻlgan talabini qondirish uchun yangi bank instrumentlari joriy qilinmoqda. Xususan, aholiga qulaylik yaratish maqsadida:

Konversion kartalar orqali mehmonxona, aviachiptalar, onlayn-doʻkonlardagi xaridlar va boshqa maqsadlar uchun internet-toʻlovlarni amalga oshirish mumkin.

Chet elga pul oʻtkazmasi amalga oshirilayotganda jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi naqd pul mablagʻlarini, shu jumladan, ularning bank kartalaridagi mablagʻlarini avtomatik tarzda konvertatsiya qilish tartibi joriy qilingan.

5. Bank xizmatlari narxini pasaytirish, tijorat banklari oʻrtasida raqobatni rivojlantirish sharoitini yaratish uchun bozor mexanizmlari joriy qilinmoqda.

Natijada, soʻnggi paytlarda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olish va sotish bilan bogʻliq bank komissiyalarining pasayish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Yuqoridagilarni kelib chiqib hamda respublika hududida qonuniy faoliyat yuritish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilganini inobatga olib, Markaziy bank barcha yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotib olishda istisnosiz tijorat banklariga murojaat qilishni tavsiya qilmoqda.

Eksport faoliyatini amalga oshirishda yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tadbirkorlik subʼyektlariga:

- Oʻzbekiston Respublikasi hududida tovar (ish, xizmat)larni norezidentlar tomonidan valyuta mablagʻlarini tijorat banklari kassalariga kirim qilinishi asosida naqd chet el valyutasiga eksport qilish;
- xorijda oʻtkazilgan koʻrgazma va yarmarkalarda tovarlarni sotishdan olingan naqd chet el valyutalarini Oʻzbekiston Respublikasidagi tijorat banklari kassalariga kirim qilish huquqlari berildi.

Bundan tashqari, endilikda tovar (ish, xizmat)lar uchun toʻlovlarni AQSH dollari, ingliz funt sterlingi, yevro, shveysariya franki, yapon iyenasi dan tashqari tijorat banklari Oʻz ixtiyoriga koʻra boshqa valyutalarni ham qabul qilishlari mumkinligi belgilandi.

Respublika aholisiga yaratilgan qulayliklardan yana biri tijorat banklari kassalariga naqd chet el valyutasini qabul qilishda:

- jismoniy shaxs-norezident tomonidan nakd xorijiy valyutani chetdan olib kelganini tasdiqlovchi yoʻlovchi bojxona deklaratsiyasi yoki jismoniy shaxs-norezidentning hisobvaragʻidan naqd xorijiy valyutani yechib olinganligi toʻgʻrisidagi tijorat banki maʼlumotnomasi;
- ustav fondiga (ustav sarmoyasiga) badal uchun naqd chet el valyutasi qabul qilinganda taʼsis hujjatlarini bankka taqdim qilinishi bekor qilindi.

6. Mulkchilik shaklidan qatʼi nazar, barcha xoʻjalik yurituvchi subʼyektlar eksport amaliyotlari boʻyicha kelib tushgan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy tartibda sotishlariga qoʻyilgan talab bekor qilindi.⁸

2017 yilning 5 sentyabridan boshlab barcha tadbirkorlik subʼyektlari eksport qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) turi va xoʻjalik yurituvchi subʼyektlarning

⁸ www.cbu.uz

mulkdorlik shaklidan qatʼi nazar, eksport amaliyotlari boʻyicha kelib tushgan xorijiy valyutadagi tushumni majburiy tartibda sotishlariga qoʻyilgan talab bekor qilindi. Bundan buyon eksportchilar eksportdan kelib tushgan oʻz valyuta mablagʻlarini erkin tasarruf etish va hech qanday toʻsiqlarsiz oʻz xohishlariga koʻra, joriy xalqaro toʻlovlarni amalga oshirish, shuningdek tovarlar (xizmatlar) importi uchun sarflashlari yoki milliy valyutadagi joriy xarajatlarni amalga oshirish uchun xizmat koʻrsatuvchi bankka yoki valyuta birjasida (bank orqali) sotish huquqiga egadir.

Amaldagi valyuta siyosati doirasida valyuta kursining dinamikasi chet el valyutasiga boʻlgan talab va taklif nisbatiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki va tashqi omillar hisobiga shakllanadi.

Valyuta kursiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki omillarga mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati, aholi va tadbirkorlarning valyuta kursi oʻzgarishi va inflyatsiya boʻyicha kutilmalari kiradi. Xususan, Markaziy bank tegishli pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali pul massasi yuqori surʼatlarda oʻsishining oldini olish hamda milliy valyutadagi aktivlarning jozibadorligini oshirish yoʻli bilan chet el valyutasiga boʻlgan talab va taklif darajasiga taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bunda amaldagi qayta moliyalash stavkasi boʻyicha bank tizimiga likvidlik berish yoki uni jalb qilish, tijorat banklari uchun majburiy rezerv talablarini oʻzgartirish va boshqa choralarni qoʻllagan holda pul-kredit siyosati instrumentlaridan faol foydalaniladi.

Monetar siyosat, shu jumladan, valyuta kursi siyosatining shaffofligini taʼminlash hamda aholining bu siyosatlardan kutayotgan oʻzgarishlarni oʻrganish maqsadida Markaziy bank jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun davriy ravishda pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni tavsiflovchi tahliliy maʼlumotlar ommaviy axborot vositalarida yoritib boriladi.

Xorijiy valyutaga boʻlgan talab va taklifga hamda valyuta kursi oʻzgarishiga taʼsir etuvchi tashqi omillarga Oʻzbekistonning asosiy savdo hamkorlari boʻlgan mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat va ularda amalga oshirilayotgan pul-kredit, shu jumladan kurs siyosati, tashqi bozorlardagi konʼyunktura hamda respublikaga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar, tashqi qarzning qaytarilishi borasida boʻlayotgan oʻzgarishlar va ularning dinamikasi kiradi.

Ushbu omillarning barchasi mamlakat toʻlov balansiga, yaʼni respublikaga valyuta mablagʻlarining kirib kelishi va undan chiqib ketishi hajmlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Valyuta kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanishi va uning tashqi iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda oʻzgarib borish xorijiy valyutaga boʻlgan talab va taklifni muvozanatlashtirish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, aynan bozor mexanizmlari asosida shakllanadigan valyuta kursi tashqi sharoitlar oʻzgarishiga tez

moslashish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish orqali “avtomatik stabilizator” funksiyasini bajaradi.

Tashqi omillarning ta’siri kuchaygan sharoitda ayirboshlash kursini barqarorlashtirish bo’yicha pul-kredit siyosati imkoniyatlarining cheklanganligini inobatga olgan holda Markaziy bankning asosiy e’tibori valyuta kursi o’zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatishga, ya’ni ichki narxlar oshishining oldini olishga qaratiladi.

Xususan, devalvatsiya jarayonlari yuzaga kelganda Markaziy bankning foiz siyosati monetar omillarning inflyatsiyaga ta’sirini kamaytirish, so’mmning xarid qobiliyatini saqlab qolish va milliy valyutadagi moliyaviy aktivlarning (aholi va xo’jalik yurituvchi sub’yektlarning jamg’armalari) qadrsizlanishiga yo’l qo’ymaslikka qaratiladi.

Valyuta kursining erkinlashtirilishi oqibatida tijorat banklari kredit portfelining xorijiy valyutadagi qismi bo’yicha vujudga kelishi mumkin bo’lgan o’zgarishlar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo’lgan ishlarning Markaziy bank tomonidan tahlil etilishi natijasida Markaziy bank tijorat banklari boshqaruvlariga:

- Xorijiy valyutada kredit olgan har bir mijoz bilan birgalikda ushbu kreditlarni qaytarish imkoniyatlarini o’rganib chiqish;
- O’rganish natijasida mijozning pul oqimi amaldagi kredit shartnomasi bo’yicha o’z majburiyatini amalga oshirishga yetmagan taqdirda, mijoz bilan birgalikda, oylik to’lovni 2017 yilning sentyabr oyiga qadar amalga oshirilgan to’lov miqdoridan kamaytirmagan holda, asosiy qarzni qaytarish miqdorini keyingi muddatlarga o’tkazish orqali kamaytirish yoki kreditni qaytarish muddatini uzaytirish yuzasidan kredit shartnomasiga tegishli o’zgartirishlar kiritish masalasini ko’rib chiqishni tavsiya qildi.

Xulosa qilib aytganda, pul o’tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy valyuta tushumi manbaiga aylanmoqda. Pul o’tkazmalari orqali kirib kelgan xorijiy valyutalar inflyatsiyani devalvatsiyaga nisbatan oshishiga olib keladi va mamlakat eksportiga salbiy ta’sir etadi. Ammo valyuta munosabatlari qattiq tartibga solinayotgan mamlakatlarda xorijiy valyutaga bo’lgan talab juda yuqori bo’lishi mumkin. Natijada pul o’tkazmalari real valyuta kursiga ta’siri sezilarsiz bo’ladi va bunday holatlarda pul o’tkazmalarini yanada rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni o’tkazishda ijobiy ta’sirga ega bo’ladi. O’zbekistonda pul o’tkazmalari hajmi yildan yilga oshib borayotganligi muvozanatli valyuta kursining yuqoriga qarab siljishiga sezilarli ta’sir etmoqda.

Valyuta bozorini liberallashtirish orqali eksportchi korxonalar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatish mumkin. Xususan, valyuta bozorining liberallashtirilishi va almashuv kursini shakllantirishda bozor mexanizmlarining joriy etilishi milliy

eksportchi korxonalar xoʻjalik faoliyatini ragʻbatlantirib, mahalliy mahsulot va xizmatlarning narx raqobatbardoshligi darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa oʻz navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ragʻbatlantiradi, ishlab chiqarishda aholi bandligi taʼminlanadi va aholi turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi.